

Qardosh bo'lmagan tillarning ayrim o'xshash jihatlari

MOHIDIL JONIQULOVNA(tadqiqotchi)

Ma'lumki, o'zaro qarindosh bo'lgan tillar grammatik qurilishi, leksik va sintaktik tuzilishi, fonetik hamda affiksial xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshaydi. Bunday o'xshashlik ularning lug'at boyliklarida, gap qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bir oilaga kiruvchi tillardagi mushtarak jihatlari tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot mahsuli sanaladi. Masalan, Oltoy tillar oilasiga mansub bir necha til o'rtasidagi shunday mushtaraklikni ko'rib chiqamiz. Leksik o'xshashlik: o'zbek tilida "temir", qozoq tilida "temer", qirg'iz tilida ham "temir", ozarboyjon tilida "demir". Affiksial o'xshashlik: o'zbek tilida "ko'chalar", qozoq tilida "kocholor", qirg'iz tilida ham "ko'chalar", uyg'ur tilida "kochilar" va boshqalar.

Dunyo tillari orasida shunday tillar borki, bir oila yoki guruhga mansub bo'lmasa-da ba'zi jihatlari bir-biriga juda o'xshash. O'zbek va fors tillari aynan shunday tillar sirasiga kiradi. Vaholanki, o'zbek tili Oltoy tillar oilasiga, fors tili esa Hind-Yevropa tillar oilasiga mansub. Bu ikki til orasidagi ba'zi bir o'xshashliklarga to'xtalib o'tamiz. 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ning "Asos va qo'shimchalar imlosi" bandiga muvofiq kishilik olmoshlarining I va II shaxs birligida, ya'ni "men va sen"ga qaratqich, tushum kelishiklarining qo'shimchalari qo'shilganda bitta "n" tovushi tushib qoladi. Ya'ni "men+ni=meni", "sen+ni=seni". Fors tilida ham "ni" qo'shimchasini ifodalovchi "ro" ko'makchisi kishilik olmoshlarining I va II shaxs birligiga qo'shilganda, "n" va "o" tovushlari tushib qoladi: "man+ro=maro", "to'+ro=to'ro.

Maskur tillardagi o'xshashlikka yana bir misol. Har ikki tilda ham I va II birlik hamda ko'plik qo'shimchalari "o, e, u" unlilari bilan tugaydigan otlarga qo'shilganda bitta "y" tovushi ortadi.

| O'zbek tilida |
|---|
| Parvo+im=parvoyim, parvo+ing=parvoying, parvo+ingiz=parvoyingiz |
| Mavqe+im=mavqeyim, mavqe+ing=mavqeying, mavqe+ingiz=mavqeyingi |

Fors tilida

Po+am=poyam(oyog'im),po+at=poyat(oyog'ing)

Ru+am=ruyam(yuzim),ru+at=ruyat(yuzing)